

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Qodirov</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
<b>M.Hamidjonov, N.Shodilbekov</b>	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
<b>B.Qurbanova</b>	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashтирish .....	107
<b>D.Xakimova</b>	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi .....	111
<b>B.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning Ilmiy-nazariy asoslari.....	114
<b>Sh.Ro'zaliyev</b>	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi .....	118
<b>F.Yuldashev</b>	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati .....	123
<b>A.Rajabov</b>	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
<b>Z.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
<b>S.O.Omonova</b>	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiropi .....	138
<b>A.T.Tuychiyev</b>	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati .....	142
<b>N.E.G'olibjon</b>	
Oliy ta'lif talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari .....	149
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....	154

## IQTISODIYOT

---

<b>M.Adxamov</b>	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
<b>A.A.Oripov</b>	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyati samaradorligini baholash .....	161

## FALSAFA

---

<b>M.Qaxxarova, M.Raximshikova</b>	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi .....	169
<b>A.Sufiyev</b>	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari .....	175
<b>B.G'aniyev</b>	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyatni haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari .....	181
<b>S.Yuldashev</b>	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari .....	186
<b>Sh.Usanov, E.Avazov</b>	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni .....	190
<b>M.Choriyeva</b>	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar .....	195
<b>K.Saydazimov</b>	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar .....	199
<b>A.Mo'ydinov</b>	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati .....	204

## JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVINING YANGI IJTIMOIY-MADANIY USULLARI

### НОВЫЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ МЕТОДЫ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ ОБЩЕСТВА

### NEW SOCIO-CULTURAL METHODS OF SOCIETY TRANSFORMATION

Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich

– Farg'ona davlat universiteti, dotsenti v.b., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

#### Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyat transformatsiyalashuvi yangi ijtimoiy-madaniy usullarini tadqiq etishning zarurati asoslangan. Unda ayollarning ilmli, har jihatdan yuksak axloq-odob egasi bo'lishlari oiladagi bola tarbiyasi, ya'ni yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan. Jamiyat transformatsiyasi va ijtimoiy-madaniy texnologiyalarda xotin-qizlarning o'rni sifatida jamiyatdagi ziyyoli va ilg'or ayollar nafaqat oilada, balki jamiyatda ham axloqiy-tarbiyaviy masalalardagi muammolarni yechishga katta hissa qo'shishi ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

#### Аннотация

Данная статья основана на необходимости исследования новых социокультурных методов трансформации общества. В ней раскрывается, что знания женщин, обладающих высокой во всех отношениях нравственностью, важны в воспитании детей в семье, то есть в воспитании подрастающего поколения. Социально-философский анализ роли женщин в преобразовании общества и социокультурных технологий, а также того, что интеллигентные и передовые женщины в обществе вносят большой вклад в решение нравственно-воспитательных задач не только в семье, но и в общество.

#### Abstract

This article is based on the need to research new socio-cultural methods of society transformation. In it, it is revealed that the knowledge of women, possessing high morals in all respects, is important in the upbringing of children in the family, that is, in the upbringing of the young generation. A socio-philosophical analysis of the role of women in the transformation of society and socio-cultural technologies, and the fact that intelligent and advanced women in society make a great contribution to solving moral and educational problems not only in the family, but also in society.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, transformatsiya, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, xotin-qizlar, taraqqiyot strategiyasi, ijtimoiy siyosat.

**Ключевые слова:** Общество, трансформация, социокультурные технологии, женщины, стратегия развития, социальная политика.

**Key words:** Society, transformation, socio-cultural technologies, women, development strategy, social policy.

## KIRISH

Jamiyat taraqqiyotida shunisi e'tiborga olish kerakki, "ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar" Respublikadagi o'zgarishlar jarayonida faol usullarni taqozo qiladi. Ya'ni jamiyat va davlat boshqaruvini tubdan isloh qilish orqali amalga oshiriladi. Dunyo tajribasini o'rganadigan bo'lsak Germaniyada boshqa mamlakatlarning, birinchi navbatda, amerikaliklarning ishlatgan "transformatsiya" atamasini kamdan-kam ishlatib, undan odatiy "tranzit" yoki "demokratizatsiya" ni afzal ko'rganlar. Ko'pgina Yevropalik tadqiqotchilar transformatsiyani siyosatshunoslik tahlilining mustaqil birligi sifatida ajratib ko'rsatmasdan, demokratlashtirishning bir qismi [1.] deb hisoblashgan. Shunday qilib, jamiyat transformatsiyasi "ijtimoiy-siyosiy transformatsiya" tushunchasi bilan integrallashgan bo'lib, bu jarayon ijtimoiy-siyosiy tizimning boshqasiga o'tishdan iborat transformatsiya jarayoni sifatida turli vektorlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlat rivojlaniishi va ularni prognozlashning murakkab jabhasidir. Bizningcha, ushu transformatsiya jarayoni tashqi omillar ta'sirida ham, ma'lum bir ishtiroychining xohishiga ko'ra ham, tizimning o'zida to'plangan tabiiy impulslar natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.

## ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari ehtiyoj mavjud bo'lib, bu ehtiyoj "Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor

## FALSAFA

yo'nalishlarini..." sifatida "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yetti ustuvar yo'nalishdan iborat 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o'rnlarda – Taraqqiyot strategiyasi)"[2.] da ilgari surilgan tub islohotlar bilan belgilanmoqda. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining IV-ustuvor yo'nalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlanadi. Unda xususan jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullarini sifatida uzluksiz ta'limni rivojlantirish, tibbiyot sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, yoshlarga oid davlat siyosatini jadallashtirish kabi muhim strategik maqsadlar belgilab olingan.

Taraqqiyot strategiyasida ilgari surilgan ustuvar vazifalarni aksariyat qismi jamiyat tarafsizmatsiyalashuviga asos bo'la oladi. Bizningcha, jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari sifatida 69-maqсадni tahlil qilsak tadqiqotimiz nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Ya'ni 69-maqсад "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" deb nomlanib unda bir qator dolzarb ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni joriy qilish nazarda tutildi. Jumladan, "Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish, Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash, "Ayollar daftari" bilan manzilli ishslash, mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish"[2.] kabilarni keltirish mumkin.

Jamiyatda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor ularni ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirokini ta'minlash kabi masala davlat va jamiyat boshqaruva sohasini transformatsiyalanishi bilan ifodalanadi. Faylasuf ayol Szin-Nin Sun fikricha "Ayol – go'zallik ijodkoridir". Ular o'zini go'zallik, musaffolik va yerdagi tartibning muxtor vakilasi sifatida tutishi zarur. Hayot ayolning qo'llariga muhtojdir"[3.114.], bu esa ayollar jamiyatda muhim figura sifatida liderlikka qodir.

Tadqiqotchilar fikricha, ijtimoiy hayotda ba'zan uchrab turadigan ochiq yoki pinhona segregatsiya, ya'ni jinsiga qarab odam ajratish va konvergentsiya aynan ayol va erkak munosabatlarda, ularning gender aloqalarida aks etib keladi[4.283.]. Bu fikrga tadqiqochi Nazokat Annayeva quyidagi qarashini bayon etadi: "Agar segregatsiya ko'rinishlari qoralansa, hatto unga qarshi xalqaro hujjatlar, konvensiyalar qabul qilingan bo'lsa, konvergentsiya, ya'ni turli ko'rsatkichlar bo'yicha o'zaro yaqinlashish ijtimoiy borliqning atributi sifatida namoyon bo'ladi[5.12.]. Bu esa jamiyatda ayollarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

Jamiyatning ajralmas va zarur tarkibiy qismi bu ijtimoiy va madaniy faoliyatning bevosita yoki bilvosita subyektlari bo'lgan ko'plab qatlarni egalari yoki jamoalar va ijtimoiy tuzilmalar yig'indisi hisoblanadi. Bunda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniyatning asosi bo'lgan va ijtimoiy-madaniy sohadagi muassasalar va tashkilotlar xodimlarini birlashtiruvchi qadriyatlar ham xuddi shunday ijtimoiy yo'nalishga ega bo'ladi. Juda ko'p uchraydigan segregatsiya, ya'ni jinsiga qarab odam ajratish va konvergentsiya gender aloqalarida fuqarolik jamiyatni institutlarini va nodavlat va notijorat tashkilotning nufuzi va imiji, kuch-qudrat, burch, yuksak professionallik, samarali hamkorliklariga ta'sir qiladi. Bu jarayonda ijtimoiy qatlarning moddiy farovonlikka intilishi, jamiyatni xavfsizligi va mustaqilligi, xotin-qizlarni o'zini-o'zi anglashi va o'z his-tuyg'ulari ifoda etish erkinligiga to'sqinliklar uchrab turadi. "Fuqarolik jamiyatni hech qayerda, hech qachon va hech kim "yuqorida o'rnatolmagan"[6.331.]. Shu sababli, ko'plab qobiliyatli ijtimoiy-madaniy jamoalar va tuzilmalar tarmog'i "yuqorida" farmon bilan paydo bo'lmaydi, balki pastdan boshlanadi, asta-sekin va o'z-o'zidan o'sib boradi. Bugungi kunda nafaqat ijtimoiy-madaniy sohada birlashuvchi davlat va nodavlat institutlarining yetarlicha aniq va asosli tavsifiga, balki mavjud ijtimoiy-madaniy jamoalar va ijtimoiy formatsiyalarning ilmiy asoslangan tipologiyasiga ham obyektiv ehtiyoj borligini anglatadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqqanda ijtimoiy-madaniy faoliyat cheksiz munosabatlarni o'z ichiga oladi. Aslida jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy texnologiyalar madaniyatning asosi bo'lgan tashkilotning imijini shakllantirish, shuningdek, uning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini bildiradi. Ijtimoiy-madaniy hamjamiyat sifatida, har qanday tashqi va ichki komponentlar yordamida o'z imijini yaratadi. Bu yerda xotin-qizlarning o'rni alohida tashqi komponentlarni identifikasiyaning obro'si hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, "Fuqarolik jamiyatni mohiyatan demokratik tamoyillarga,

insonning iqtisodiy huquq va erkinliklariga tayanadigan, ularni qo'llab quvvatlaydigan makon hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining iqtisodiy demokratiya bilan uzviy bog'liqligi ularning immanent xususiyatlardan, shaxs bilan sotsium manfaatlarini muvofiqlashtirib borish talablaridan kelib chiqadi”[5.18.]. Ijtimoiy-madaniy sohaning turli sohalarida ishlaydigan professional ishchilarning aksariyati oila, aholining turli guruhlari va ma'lum bir mikro-jamiyatda faoliyat yurituvchi ko'plab davlat va nodavlat ijtimoiy-madaniy institutlar o'tasidagi aloqani tashkil etuvchi funksiyalarni ham bajaradi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagagi faolligi ijtimoiy-madaniy faoliyatda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish samaradorligiga bu yerda ishlayotgan har bir mutaxassisning yuqori malakasi va kasbiy mahorati (professionallik mahorati) darajasi ta'minlangan taqdirdagina erishish mumkin. Shu sababli jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullarini sifatida xotin-qizlarning ijtimoiy siyosatini amalga oshirish muhim strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyatni har jihatdan transformatsiyalash hamda uning ijtimoiy-madaniy texnologiyalar asosida yuksaltirish taraqqiyot darajasini belgilab bermoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5938-son Farmonida belgilanganidek, “...«mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla” tamoyili asosida samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'tasida ishonchli “ko'pri” bo'lishini amalda ta'minlash, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga”[7.] oshirish belgilandi. Bu esa jamiyat transformatsiyasida ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish zaruratini hamda unda oila va xotin-qizlarning o'rni muhim ekanligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi – ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagagi o'rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir.

Bu o'z navbatida, “Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma'rifatli va salohiyatli qilish,” degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi”[8.247.], deb ta'kidlaydi.

Jamiyat transformatsiyasi va ijtimoiy-madaniy texnologiyalarda xotin-qizlarning o'rni jamiyatdagagi ijtimoiy sohadagi katta o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu esa jamiyatni mazmun jihatdan mavjud bo'lishi shakllari, uni ilmiy boshqarishni yangi yo'llarini izlash bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralidagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5325-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda belgilab qo'yilgan ustuvor vazifalar sifatidagi qarashlar jamiyat ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni yuksalishiga sabab bo'imqoda.

### **XULOSA**

Jumladan, jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari birinchidan, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirishda;

ikkinchidan, xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarining manzilli ro'yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishda;

uchinchidan, xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharotlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

to'rtinchidan, xotin-qizlar o'tasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, birinchi navbatda, huquqbazarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha

## FALSAFA

chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash masalalari ustuvor yo'naliishda o'z ifodasini topmoqda.

Jamiyat transformatsiyasi va ijtimoiy-madaniy texnologiyalarda xotin-qizlarning o'rnni yuksalishiga tuman xotin-qizlar qo'mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'nnaviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni joriy etildi. Bu esa jamiyat va davlat hayotida faoliyat va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarning rag'batlantirish maqsadidir. Bu ham yurtimizda ayollarga bo'lgan hurmatning belgisi hisoblanadi.

Jamiyat transformatsiyasida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarining rivojlanishi usullarini o'rganish obyektiv ehtiyojdan kelib chiqqan holda yangi ijtimoiy-madaniy texnologiyalar hisoblanadi. Bu biliish subyektining ijtimoiy borliq bilan bog'liq holda yangi ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni yaratish asosida jamiyatda mavjud bo'ladi. O'z navbatida jamiyatni loyihalashtirish ijtimoiy-madaniy texnologiya sifatidagi zaruratdan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ijtimoiy hodisa va jarayonlarining munosabatlarni aks ettirbgina qolmasdan balki ushbu jarayonlarni boshqarish va strategik yo'naliishlarini belgilab berishga ko'maklashadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat transformatsiyasini modellashtirish texnologiyasining obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro uzviy birligidan kelib chiqadigan funksional va institutsional jihatni asoslash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, jamiyatni ilmiy boshqarish muammolarini bartaraf etishda xotin-qizlarning o'rniqa doir ijtimoiy texnologiyalar identifikatsiyasi madaniy-ijtimoiy tartibga solishda ta'lif va tarbiya tizimi orqali jamiyat a'zolarini jaib qilish yo'li bilan jamiyat yangilanishiga asos bo'ladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shtikov P. Issledovaniye transformatsionnx protsessov v Vostochnoy Germanii i Vostochnoy Yevrope: dostijeniya, problem i perspektiv nemetskix sotsialníx nauk (1990–2002 god) / P. Shtikov <http://www.rapn.ru/index.php?doc=lib213>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
3. Szin-Nin Sun. Iskusstvo voynы. Drevnekitayskaya mudrost Sunъ-TSzi dlya jenshin, stremyashixsya k uspexu. – Moskva: EKSMO, 2008.
4. Bendas T.V. Gendernaya psixologiya liderstva. – Orenburg: Logos, 2000.
5. Annayeva N.R. Ayollar tadbirkorligining genezisi, nazariyasi va amaliyoti (O'zbekiston misolidi). Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Samarcand. 2019.
6. Kiseleva G.G., Krasilnikov Yu.D. Sotsialno-kulturnaya deyatelnost. Moskva. MGUKI, 2004.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'nnaviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5938-son Farmoni // O'zbekiston Pecpublikaci qonun hujjatlap to'plami, 2020 - y., 0970-son, 255- modda.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent. "O'zbekiston". 2021.
9. Yuldashev, S. U. (2019). THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN SOCIETY. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 187-192.
10. Yuldashev, S. U. (2019). The role of the function of stabilization and development of society in scientific management (as socio-cultural technology). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(6), 255-259.
11. Yuldashev, S. U. (2019). TECHNOLOGY OF SOCIAL AND CULTURAL PROJECTION IN SCIENTIFIC MANAGEMENT OF SOCIETY. *Theoretical & Applied Science*, (11), 621-623.
12. Юлдашев, С. Ў. (2022). Жамиятни инновацион бошқаришда илмий ёндашув. *Scientific progress*, 3(1), 20-25.